

**YOSHLAR SIYOSATIGA OID, YOSHLAR BANDLIGIGA
KO`MAKLASHISH UCHUN PF-61 SONI**

Karimova Oybibbi Xamidovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti magistratura talabasi

lady.oybibbi@mail.ru

Annotatsiya: *Bu mavzu yoshlarni ish bilan taminlashga qaratilgan strategik yondashuvlar va davlat tomonidan ko`rsatilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar faqatgina budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslargagina tegishli bo`lib, qolgan xususiy sektorlar bu berilayotgan imkoniyatdan foydalana olishaolmasligi, bu esa o`z o`zidan xifyona siyosatni bartaraf etish o`rniga aksincha xech qanday samara bermasligi va mavzuni mamlakatimiz kelajagi uchun ahamiyatli va dolzarb deya hisoblanadi.*

Kalit so`zlar: *Bandlik, PF-61soni, yoshlar, ijtimoiy soliqlar.*

Kirish

Teziz ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati: Yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, ularning bandligiga ko'maklashish, doimiy ish bilan hamda munosib daromad olishini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida: Prezidentimizning 26.04.2023 yildagi 61-sonli farmoni joriy qilingan edi. Bu imkoniyatlar 2023-yil 1-maydan boshlab 2025-yil 1-yanvargacha qadar ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to'lovchilar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun

to'langan ijtimoiy soliq summasi davlat budjetidan to'liq qoplab beriladi¹. Ammo bu mavjud imtiyozlar xususiy sektorlarni chetlab o'tib, oqibatda xifyona siyosat ro'li davlatimiz miqyosida faqatgina davlat tashkilotlariga qismangina ta'sir etishi va bu mavzuni qayta o'rganish, o'zgartirishlar kiritish zarur va ahamiyatli deb hisoblanadi.

Bu farmoni oliyda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab qoplab beriladi. Ish beruvchilarga ijtimoiy soliq summasining qoplab berilishi 2023-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan transfertlar hisobidan amalga oshiriladi². Ammo nega yosh chegarasi faqatgina 25 yoshga to'lmaganlar uchun joriy qilingan? Amaldagi yoshni biz 30 gacha belgilab qo'ysak bu yaxshiroq samara berishi ehtimoli 25 yoshga qaraganda ancha baland bo'lishi mumkin. Bu farmonni nafaqat davlat sektorlariga balki barcha uchun bir xil etib qo'ysak ya'ni xususiy sektorlarga ham bu imkoniyatlarni yaratib bersak, nafaqat xifyona siyosatni keskin kamayishi balki ishsiz, band bo'lmagan yoshlarning soni kamayishi va yana kambag'alikni qisqartirishga kotta yordam va hissasini qo'shgan bo'lar edi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi "Ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasini Davlat budjetidan to'liq qoplab berish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 460-son qaroriga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan PF maxsus o'zgartrishlar kiritildi. Shu o'zgartrilishlarga asosan:

Takliflar:

Bu farmonni va o'rganilib chiqib shunday hulosaga kelindi:

1. 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasini xamma sektorlar uchun bir xil qilib belsilanishi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.04.2023 yildagi PF-61-son <https://lex.uz/docs/-6442039>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.04.2023 yildagi PF-61-son <https://lex.uz/docs/-6442039>
www.tadqiqotlar.uz *1-to'plam noyabr 2023*

2. Yosh chegarasi 25 emas balki 30 etib belgilanishi
3. Ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab qoplab berilishini o`rniga, yosh xodimning ishga kirgan kunidan to 30 yoshgacha bo`lgan davr uchun konxona, tashkilot, firmaning ijtimoiy soliqdan ozod etilinishi.

Xulosa

Avvalroq yagona reyestrda kiritilgan fuqarolarga ayrim tovarlar xaridi uchun to`langan QQS qaytarilishi belgilangandi³. Bu ham mamlakatimiz tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun ko`rsatilayotgan yordamlarning bir bo`lagi va tanganing ikkinchi tarafini qaraydigan bo`lsak kambag`allikni qisqartirishning bir o`ziga hos usuli. Ana shunday usullar, imkoniyatlar, imtiyozlardan yuqorida ko`rsatilgan takliflardan foydalansak bu qaror va farmon elimizga o`zini buyuk hissasini qo`shibgina qolmay balki mamlakatimizni ishsizlik sonidan qutqaradi, yosh xodimlarimizni ish bozorida ulishi ortadi, va budjetimiz yanada boydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.04.2023 yildagi PF-61-son <https://lex.uz/docs/-6442039>
2. <https://www.spot.uz/oz/2023/04/26/tax-reimbursement/>

³ <https://www.spot.uz/oz/2023/04/26/tax-reimbursement/>
www.tadqiqotlar.uz